



O'ZBEKISTONDA KITOBXONLIK DARAJASI

Egamov Nazirbek Nurullayevich

*TerDU "O'zbekiston tarixi va
manbashunoslik" kafedrasi tayanch doktoranti*

E-mail: naziregamov7@gmail.com

Annotatsiya: Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda millatlar uchun ilm-fan cho'qqilarini egallash nechog'lik muhim ekanligini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Qaysiki xalq ko'p kitob o'qisa, ko'p ilm egallasa, o'sha millat muvaffaqiyat cho'qqilarini ko'proq zabt etmoqda. Buning zahirida esa tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnat yotishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ko'p kitob o'qish, ilm olish va yangidan yangi marralarni zabt etish O'zbekiston xalqi uchun ham o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Ammo bu vazifani uddalay olishimiz uchun qay darajada harakat qilyapmiz, izlanyapmizmi yoki yo'qmi, kitob o'qiyapmizmi o'zi, mamlakatimizda kitobxonlik darajasi qanday holatda, - degan savollar tug'ilishi tabiiy. Shu kabi savollarga ushbu maqolamiz orqali statistik ma'lumotlar, arxiv hujjatlari, kitobshunos olimlarning fikr-mulohazalari va ilmiy tahlillariga asoslangan holda javob topishga harakat qilib ko'rdik. Qilingan xulosalar natijasidan kelib chiqib, o'z taklif va tavsiyalarimizni bayon etdik.

Kalit so'zlar: kitobxonlik darajasi, readability, adabiy piknik, bir mamlakat-bir kitob, Grow for Knowledge, ochiq kutubxona, bolalar adabiyoti, "WikiBilim" fondi.

УРОВЕНЬ БИБЛИОТЕКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: Само время показывает, насколько важно странам достичь высот науки в современном быстро развивающемся мире. Нация, которая читает много книг и приобретает много знаний, более успешна. Ни для кого не секрет, что в основе этого лежат постоянные исследования и упорный труд. Поэтому читать много книг, учиться и покорять новые цели — одна из важнейших задач для народа Узбекистана. Но в какой степени мы пытаемся выполнить эту задачу, проводим исследования или нет, читаем ли книги, и каков уровень чтения в нашей стране. Ответы на подобные вопросы мы попытались найти с помощью данной статьи, основываясь на статистических данных, архивных документах, мнениях и научных анализах библиографов. По результатам сделанных выводов мы представили свои предложения и рекомендации.

Ключевые слова: уровень чтения, читабельность, литературный пикник, одна страна – одна книга, Grow for Knowledge, открытая библиотека, детская литература, фонд «ВикиБилим».

LEVEL OF LIBRARY IN UZBEKISTAN

Abstract: Time itself shows how important it is for nations to reach the heights of science in today's rapidly developing world. A nation that reads a lot of books and acquires a lot of knowledge is more successful. It's no secret that at the heart of this lies constant research and hard work. Therefore, reading a lot of books, learning and conquering new goals is one of the most important tasks for the people of Uzbekistan. But to what extent we are trying to accomplish this task, whether we are researching or not, whether we are reading books, and what is the level of reading in our country. We tried to find answers to such questions through this article based on statistical data, archival documents, opinions and scientific analyzes of bibliographers. Based on the results of the conclusions, we presented our suggestions and recommendations.

Key words: reading level, readability, literary picnic, one country-one book, Grow for Knowledge, open library, children's literature, "WikiBilim" foundation.

Kirish. Xalqning ommaviy kitobxonlik darajasiga va kutubxonachilikni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor mamlakatimizda, asosan, XX asr boshlarida rivojlana boshladi, deyish mumkin. Kimdir fikrimizga qarshi o‘laroq, ommaviy kitobxonlik bizda ming yillar muqaddam ham mavjud bo‘lgan, agar mavjud bo‘lmaganda buyuk olim va mutafakkirlar qanday yetishib chiqardi, IX-XII asrlardagi va temuriylar davridagi Renessans, ya’ni Uyg‘onish davri qanday vujudga kelardi, deb raddiya berishi mumkin. Ammo shuni tushunib yetishimiz kerakki, bu davrlarda kitobxonlik ommaviy darajada shakllanmagan, savodxonlik darajasi esa umumiy aholini to‘liq qamrab ololmagan edi[1,2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqilligimizgacha bo‘lgan 1-1,5 asrlik davr tariximizning eng qora kunlaridan biri bo‘lishi bilan birga, mamlakatimizda zamonaviy kutubxonachilikning paydo bo‘lish davri ham hisoblanadi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning ta’biri bilan aytganda:”Mustamlaka davri qanchalik og‘ir davr bo‘lmasin, bizning o‘z tariximiz hisoblanadi, undan hechqachon voz kecha olmaymiz”. Shuning uchun bu davrga faqat salbiy tomonlama qaramay, o‘zimiz uchun ijobiy xulosalar ham chiqarib olishimiz kerak. Sobiq sho‘ro hukumati hokimiyatni qo‘lga kiritgach, 1920-yillarda “Ommaviy sovet kitobxoni”ni shakllantirish jarayoni boshlandi. Aslida, bu tadbir milliy xalqlarning kitobxonlik darajasini ko‘tarish uchun emas, balki mamlakatda mavjud kutubxonalarni mafkuraviy bazaga aylantirish uchun amalga oshirilgan edi. Bu haqida rus kutubxonashunos olimasi Ye. V. Yegorova ham o‘z tadqiqotida aytib o‘tadi va o‘sha davrda kutubxonachilik ishining hozirgi ko‘pgina elementlari shakllanganligini ham qo‘shimcha qiladi:”Kitobxonlik doirasini tartibga solish tizimi kutubxonalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga

xizmat qildi. Butun sovet davrida keng qo‘llanilgan va hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan kutubxona ishining yangi shakllari va usullari paydo bo‘ldi va rivojlandi” [2].

Bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan kitobxonlik darajasi va kutubxonachilik ishi mamlakatning unchalik ko‘zga tashlanmaydigan, ammo rivojlanish darajasiga juda katta hissa qo‘shadigan tarmog‘i hisoblanadi. Shuning uchun yaxshigina e‘tibor talab qiladigan bu madaniy jarayonlarga yuzaki qaramasligimiz kerak. Bu masalalarga e‘tiborsizlik qilish ma‘naviy tubanlik, qoloqlik, madaniyatsizlik kabi illatlar bilan bir qatorda moddiy qashshoqlikni ham keltirib chiqarishi hech gap emas. “Yangi mingyillik boshida butun dunyo kutubxonalari axborot jamiyatidagi o‘z o‘rnini oydinlashtirmoqda. Ularning funksiyalari bir qator ijtimoiy omillarning o‘zgaruvchan ta’siri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Kutubxonalarning roli, vazifasi va maqomi belgilanadi. Bu ko‘proq rivojlanayotgan mamlakatlarga taalluqlidir. Bunday mamlakatlar uchun barcha zamonaviy talablarga javob beradigan kutubxona-axborot xizmati tizimini yaratish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, uning yechimi ko‘p jihatdan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish sur‘atlarini belgilaydi” [3].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, u yoki bu mamlakatdagi biron bir hodisa yoki jarayon tarixini boshqa mamlakatlardagi o‘xshash jarayon yoki hodisa tarixi bilan qiyosiy tahlil qilmasdan turib ko‘rib chiqish yaxshi natija bermaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Sobiq ittifoq hududlarida 1970-yildan boshlab kitobxonlar va kitob sotuvchilar sonining o‘shish sur‘atlarida aniq pasayish kuzatilgan. Kutubxonalarning moddiy-texnika bazasining zaifligi, mutaxassislarning kam ta’minlanganligi, kutubxonaning mafkuraviy muassasa ekanligi va siyosiy ta’sir vositasi sifatidagi ijtimoiy-madaniy qiyofasi birgalikda kutubxona va kutubxonachi kasbi nufuzining pasayishiga sabab bo‘lgan. Bu salbiy holatlar mustaqillikdan keyingi davrda ham kutubxona sohasining eng og‘riqli nuqtalaridan bo‘lib qolmoqda (bular orasidan faqat bizning kutubxonalarda siyosiy mafkuraga xizmat qilish, degan narsa yo‘q).

Kitobxonlik darajasining dunyo mamlakatlarida qanday o‘sib borayotganligini aniqlash juda mushkul ish. Shunday bo‘lsada, ba’zi bir ilmiy tashkilotlar bu boradagi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, mamlakatlar reytingini tuzib bormoqdalar. Masalan, Grow for Knowledge tarkibidagi NOP World tashkiloti dunyoning turli mamlakatlari aholisi haftada necha soat vaqtini kitob o‘qish, televizor tomosha qilish, radio tinglash va kompyuterda o‘tirish (ishlash emas) bilan mashg‘ul bo‘lishini o‘rgandi. Natijalarga ko‘ra, eng ko‘p televizor ko‘ruvchilar Tailandda (haftasiga 22 soat 24 minut), aksariyat radio tinglovchilar Argentinada (20 soat 48 daqiqa), ko‘pchilik kompyuterda o‘tiruvchilar Tayvanda (12 soat 36 daqiqa) ekanligi aniqlandi[4].

GFK xalqaro tadqiqot instituti o‘tkazgan so‘rovnomaning 2016-yilgi natijalariga ko‘ra, dunyoning eng kitobxon millati xitoyliklar bo‘lishdi. So‘rovnomaga javob bergan xitoyliklarning 70 foizi har kuni yoki har haftada aqalli bir marta kitob o‘qishini ta’kidlagan. Ikkinchi o‘rinni rossiyalik (59 %), uchinchi o‘rinni ispaniyalik (57 %) kitobxonlar egallashdi. Ushbu ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda 26 ta davlat

kitobxon mamlakat sifatida ro‘yxatga olinib, ularning reytingi ishlab chiqildi. Unda har bir qatnashuvchining hafta davomida qancha vaqtini kitob o‘qishga sarflagani aniqlangan. Bu borada hindlar yetakchilikni qo‘lga kiritib, o‘rtacha hisobda 10 soat-u 42 daqiqa ko‘rsatkich qayd etishgan. Ro‘yxatda 26-o‘rinda turgan Janubiy Koreya 3 soat 06 daqiqa ko‘rsatkich qayd etgan. Demak, bu ro‘yxatga qo‘shilmagan mamlakatlar aholisi haftasiga o‘rtacha 3 soat ham kitob o‘qimas ekan, degan tushuncha paydo bo‘ladi. Bu kuniga 26 daqiqa ham kitob uchun ajratilmayapti, degani. Endi bir o‘ylab ko‘raylik, O‘zbekiston aholisi bir haftada necha soat kitob o‘qiydi? Talaba va abituriyentlardan boshqa qaysi toifani kitob o‘qiyapti, deb maqtana olamiz? Xalqimizni kitobga mehr qo‘ygan xalq, desa bo‘ladimi? Afsuski, tayinli ijobiy javobimiz yo‘q.

Yana bir qiziq jihat shundaki, yuqoridagi ro‘yxatda nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mamlakatlaridan hech biri joy olmagan. Algebraga asos solgan, yulduzlarni “sanagan”, Nil sathini o‘lchagan, yerni dumaloqligini ilmiy asoslab bergan insonlarning avlodlari yashayotgan mintaqa “qoloq kitobxon” darajasiga tushib qolgani aytish kerak bo‘lgan achchiq haqiqatdir. Mamlakatimiz aholisini hech bir tahlil va talqinsiz kitob o‘qimaydigan millatga chiqarib qo‘yishdan yiroqmiz, ammo tadqiqotlar va jamiyatshunoslarning fikri bu borada yaxshi tavsifnoma bermayapti. Bu masalada kutubxonashunos tadqiqotchi Tatyana Arzunyaning: “Madaniyat sohasidagi tadqiqotlar uchun intervyular muhim va nisbatan yangi manba hisoblanadi. Kutubxona xodimlari va faol kitobxonlar bilan olib boriladigan jonli suhbatlar muallifga hujjatli materialni to‘ldirish va diversifikatsiya qilish qilish imkonini beradi”, - degan fikriga tayangan holda kutubxonachilik va kitobxonlik masalasidagi juda muhim suhbat va intervyularga ham murojaat qildik[5].

Hukumatimizning rasmiy kanallaridan biri bo‘lmish Kun.uz ning maxsus muxbiri Ilyos Safarov jamiyatda garchi eshtilishidan zerikarli bo‘lsa-da, lekin mazmunan juda muhim va bugun deyarli barcha muammolarimizning tub ildizi bo‘lgan kitobxonlik, O‘zbekistonda bu yo‘nalishning ahvoli haqida soha vakillari bilan intervyu o‘tkazdi. Ushbu suhbat tadqiqotimiz uchun o‘ta muhim fikr-mulohazalarni o‘rtaga tashlaganligi uchun unga alohida urg‘u berishga harakat qildik. Intervyu mehmonlari noshir Sanjar Nazar, sobiq "Kamolot" YoIH Markaziy kengashi raisi, bu lavozimda “Kamolot kutubxonasi” rukni ostida 100 nomdagi minglab kitoblar chop etilishiga bosh-qosh bo‘lgan Bahodir G‘aniyev va bolalar yozuvchisi Sa‘dullo Qur‘onovlar bo‘ldi.

Muxbirning O‘zbekistonda bugun bolalar kitobxonligi qanday ahvolda? O‘zbek bolalari dunyo bolalari bilan solishtirganda ko‘p o‘qiyaptimi, kammi yo juda kammi? – degan savoliga tajribali kitobshunos Sanjar Nazar shunday javob bergan: “Kitob o‘qish darajamizni rivojlangan, o‘qiydigan davlatlar bolalari bilan taqqoslasak, deyarli yo‘q, desa ham bo‘ladi, chunki juda kam. 2022 yilda bolalar uchun yaratilgan asarlarni sanayman desangiz, bitta qo‘l barmoqlari ham ortib qoladi. Tarjimada ham shu holat. Aynan badiiy adabiyot tomonidan ahvolimiz juda yomon. 2022 yilda O‘zbekistonda birinchi marta 3 yoshdan boshlab o‘qish

mumkin bo‘lgan (3+) kitob chop etdik, 3000 adadda, shundan bor-yo‘g‘i 600 tachasi sotildi. Shundan ham bilish mumkin ahvolimizni” [6].

Muxbirning xuddi shu savoliga bolalar kitoblari nashriyotchisi Bahodir G‘aniyev:
“**Men** “Jajji akademik” jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishlaganimda “Xorijdagi tengdoshim” rukni bo‘lar edi. Shu ruknda “Ta’til vaqtida mingta kitob o‘qigan bola” sarlavhali maqola chiqarganmiz. Bu xuddi yolg‘ondek tuyuladi, lekin 8-9 yashar qiz mingta kitob o‘qigan edi ta’tilda. Yaqinda bir tanishim ham Germaniyaga borganda, o’sha yerda yashaydigan jiyani bir haftada 27 kitob o‘qiganini aytib berdi. Kitob deganda, qalin kitobni tushunmaslik kerak, yosh bolalar uchun kitoblar kam hajmli bo‘ladi. Taqqoslaydigan bo‘lsak, bizda bolalar kitobxonligi ancha past”, - deb **javob qaytargan.**

Shu o‘rinda Mo‘g‘uliston kutubxonachilik tarixi bilan shug‘ullangan tadqiqotchi Nansalma Aryaabalning: “Kutubxona faoliyatini rivojlantirishga kutubxonachilik faoliyatini, kutubxonalarning rolini, ularning shaxsiy va milliy ijtimoiy-iqtisodiy o‘lishi uchun axborot imkoniyatlarini jamoatchilik tomonidan yoritish bo‘yicha milliy konsalting va muvofiqlashtiruvchi agentlikning yo‘qligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”, - degan fikrlari ham asosli bo‘lib ko‘rinadi. Chunki bunday tizim bizning mamlakatimizda ham yo‘q. Shunday muvofiqlashtiruvchi tizim mavjud bo‘lsa, u kutubxonalarning ham, kitobxonlikning ham darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu fikr-mulohazalardan kelib chiqib mamlakatimizda kutubxonalar faoliyatini, kitobga bo‘lgan e’tiborning darajasi ancha past ekanligini tushunib olish qiyin emas. Ayni shu sohaning ichida yurgan shaxslarning fikri bu borada eng aniq fakt, deb qabul qilinishi to‘g‘ri bo‘ladi, fikrimizcha. Chunki kitobni sevadigan millat tinmasdan rivojlanish cho‘qqilarini zabt etib boradi. 2024-yilning iyun oyida Yaponiyaga borgan bir qozoq blogerining keng jamoatchilik muhokamasiga sabab bo‘lgan posti bunga to‘liq misol bo‘la oladi. Bloger o‘z postida metroda kitob o‘qib ketayotgan o‘nlab kishilarni uchratgani va yaponlarning kitobga bunchalik mehr qo‘yganidan hayratda qolgani haqida yozilgan. Yaponlarning taraqqiyotda ildamlab ketganining asl sabablaridan biri ham shunda, aslida.

Xorijda tadqiqotchilar iqtisodiy o‘lishga olib keladigan noishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirilayotgan budjet mablag‘lari ulushini sezilarli darajada oshirish zarurligini tushuna boshladilar. Tadqiqotchilar AQShda ta’lim muddatini 1 yilga oshirish YaIMning 5-15% ga oshishiga olib kelishini aniqladilar, Markaziy Afrika mamlakatlarida boshlang‘ich ta’limga investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning 24% o‘lishini ta’minlaydi. Kutubxonachilik ham xuddi shunday sohalardan biri hisoblanadi, uni bimalol iqtisodiy foyda keltiradigan sohaga aylantirish mumkin. Bunda faqatgina birinchi o‘ringa foyda olishni emas, sohani rivojlantirish orqali millatning kitobxonlik salohiyatini oshirishni maqsad qilish zarur, bu e’tibor qilish kerak bo‘lgan juda muhim faktor hisoblanadi. Shulardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda ham kutubxonachilikka yanada katta mablag‘ sarflagan holda uni yuksaltirish, kutubxonalarni iqtisodiyotga qo‘shimcha tushum tushiradigan sohaga aylantirish, millatimizni dunyoning eng kitobsevar xalqlari qatoriga qo‘shish bugungi kundagi muhim vazifa qilib olinishi kerak[7].

Xalqimizning kitobxon bo‘lmay qolgani haqida kitoblar bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor, Asaxiy.uz internet do‘koni asoschisi Firuz Allayev o‘zining Facebookdagi sahifasi orqali o‘zbekistonliklar kam kitob o‘quvchi millatga aylanib qolishi sabablari haqida fikrlarini bildirdi: “Kitob o‘qimay qo‘yganimizning sabablarini ko‘pchilik ta’limda ko‘radi, kimlardir davlatni, kimlardir oilani, kimlardir noshirlarni ayblaydi. Bugun kam o‘qiydigan millat ekanimizni rad etib bo‘lmaydi. Lekin kitob kam yoki ko‘p o‘qilishi natija hisoblanadi. Uning mamlakatdagi tizim bilan bog‘liq chuqur sabablari bor. Natija bilan emas, sabablari bilan ishlamasak, vaziyatni o‘nglash muammo bo‘lib qolaveradi”, – deydi bir necha yildan buyon kitob bozorida faoliyat yuritayotgan tadbirkor.

Firuz Allayev bu borada o‘zgartirilishi yoki qarshi kurashilishi kerak bo‘lgan qator sabablarni sanaydi. Bunda u bozor qonunlarini birinchi sabab sifatida ko‘rsatadi: “Kitob o‘qishda ham talab va taklif qonuni ishlaydi. Odamlarda shunchaki kitob o‘qishga talab bo‘lishi kerak. Qachonki mamlakatda bilim qadrlansa, bilimli odam yaxshiroq yashasa, ko‘proq daromad qilsa va jamiyatda hurmat topsa, shundagina kitobga yoki ta’lim bilan bog‘liq boshqa faoliyatga talab bo‘ladi. Mamlakatda bilim qadrlanishi uchun hammaga teng imkon beradigan inklyuziv tizim amal qilishi kerak. Bozor qonunlari bo‘yicha aytganda, iqtisod uchun kim ko‘proq qiymat yaratsa, o‘sha yaxshiroq yashashi kerak. Halol raqobatbardosh bozorda kim ko‘proq bilimga ega bo‘lsa, o‘sha ko‘proq qiymat yaratadi.

Amalda nima bo‘ldi, oxirgi 40 yilda mamlakatda kariyera qilish, yutuqqa erishish aksar holatlarda tanish-bilish, korrupsiya va boshqa sxemalar orqali bo‘ldi. Haqiqatdan o‘z mehnati bilan natijaga erishganlar ko‘proq qoidadan tashqari holat. Aksar odamlar pul, tanish-bilish orqali muvaffaqiyatga erishdi. Shou-biznes, sport kabi kamroq bilim talab qiladigan kasblar ko‘proq qadrlandi. Bunga yana “propiska” kabi davlat tomonidan sun‘iy qo‘yilgan to‘siqlar ham qo‘shildi. Davlat ishida kariyera qilish kuchli qarindoshchilik, tanish-bilish talab qilingan bo‘lsa, biznesda ko‘proq qonunlardan ustalik bilan qocha olganlar yoki kerakli organlarning vaqtida tomog‘ini moylay olganlar «soqqa» qilishdi.

So‘nggi yillarda tizim o‘zgarib, demokratlashish evaziga qanchadir miqdorda davlat ishida ishlash bilim talab qila boshladi. Bilimli yosh kadrlar asta-sekinlik bilan yuqori mansablarga erishishdi. Biznesda bo‘lsa vaziyat keskin o‘zgardi. Kechagina daftarda hisob-kitob qilib, kontrabanda yoki noqonuniy ishlar evaziga yashab yurgan biznes qandaydir 4-5 yilda avtomatizatsiya, dasturlash, marketing, raqobat, sifat evaziga daromad qilib boshladi. Tan olaylik, 2015 yildagi eng aqlli biznesmenning bilim darajasi bugungi o‘rtacha biznesmenning bilim va ko‘nikmalaridan pastroqdir. Mamlakatda bilimga talab kitobga talabni yaratadi”.

Mutaxassis ikkinchi sabab sifatida erkin bo‘lmagan axborotni keltiradi: “Mamlakatda axborot qanchalik erkin bo‘lsa, odamlar jamiyat va davlat hayotiga bog‘liq ishlarni ko‘proq muhokama qilsa, OAV da qanchalik ko‘p yangilik chiqsa, fuqaro atrofni tushunish uchun shuncha ko‘p mutolaaga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, axborot erkin bo‘lgan mamlakatda shunchaki shou-biznes va turk seriali bilan butun aholini band qilib bo‘lmaydi.

Hayotni tushungisi, anglagisi keladigan aholi ma'lumot qidirib boshlaydi. Bu manbalardan biri esa kitobdir”.

Uchinchi sabab sifatida noto‘g‘ri targ‘ibot keltiriladi: “Ma’naviyat va kitob bizda ko‘p yillar eski, sovetcha usulda targ‘ibot qilindi va bu usullar joylarda hamon davom etyapti. Bu so‘zlar shunchalik ko‘p gapirildi, noto‘g‘ri targ‘ib qilinaverdiki, bugun shu so‘zlarni eshitganda odamlar kuladigan bo‘lib qoldi.

Kitob qandaydir qiyin va majburiy narsa sifatida targ‘ib qilinavergani ortidan, aholining aksar qismi bugun kitob o‘qishni zerikarli va yoqimsiz jarayon deb biladi. Ko‘p o‘qiydigan millatlarda kitob, kino, konsert yoki boshqa dam olish vositalari analog sifatida ko‘riladi. Ya’ni aholi ongida kitob miyaga dam berish vositasi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda odamlar bugun kech bir-ikki soat kitob o‘qib dam olamanmi yoki kino ko‘rib dam olamanmi, deya o‘ylaydi.

Bizdagi hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda kitob o‘qish yiliga o‘rtacha 20 foizdan oshmoqda. O‘qiydiganlar soni kam bo‘lsa-da, muhimi ortib bormoqda. Bu esa so‘nggi yillarda mamlakatda bilimga nisbatan talab paydo bo‘lgani, so‘z erkinligi bilan bog‘liq vaziyat yaxshilanayotgani va O‘zbekistonda ham zamonaviy marketing rivojlanib boshlagani natijasidir” [8].

Ushbu mutaxassisning fikrlarini tahlil qilib, unda o‘tkir mushohada borligini tushunib olish qiyin emas. Aytib o‘tilgan uchta sabab ham mamlakatimizda, qolaversa, butun dunyoda kitobxonlik darajasini oshirishga juda katta turtki bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, odamlar orasida kitobxonlik rivojlanishi uchun erkin raqobatbardosh bozor yaratishimiz va uning ortidan bilimga nisbatan talab doimiy ortib borishini ta’minlashimiz, mamlakatda demokratik reformalarni davom ettirib, inklyuziv tizimni yaratishimiz, so‘z erkinligi bilan bog‘liq vaziyatni yanada yaxshilashimiz juda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Rossiyalik kutubxonashunos tadqiqotchi Tatyana Rubanova mamlakatda kitob va kutubxona faoliyati rivojlanmay qolishi sabablari haqida so‘z yuritib, aholining savodxonligi past bo‘lishi, ommaviy kitobxon uchun yetarlicha “kitob ommaviyligi”ning yo‘qligini aytish bilan bir qatorda, xalq o‘rtasida kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligini asosli tarzda kutubxonalar rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi sabablar sifatida keltirgan. Shundan xulosa qilgan holda mamlakatimizda kitob o‘qishni zaruriy ehtiyojga aylantirish uchun harakat qilishimiz kerak. Yoshlarimiz qachonki o‘zlari uchun kitob o‘qishni zaruriy ehtiyoj deb hisoblasalar, o‘shandagina kitobxonlikda yuqori marralarni zabt etishimiz mumkin.

Endi kitobxonlik darajasining pastligi va bolalar adabiyotidagi muammolar haqida hozirda Yoshlar ishlari agentligining elektron va audio kitoblar bo‘yicha yangi loyihasi – “Mutolaa” intellektual superilovasida bolalar adabiyoti bo‘limi bosh muharriri bo‘lib ishlab kelayotgan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sa’dullo Quronovning quyidagi fikrlarini tahlil qilsak.

“Bolalar adabiyoti – muammolari ko‘p va xo‘p aytiladigan, lekin biror arzirli natija, yechim ko‘rilmaydigan sanoqli sohalardan biri. Shu sababli, doim muammoning mohiyatini

izlayman, ba‘zan optimist, ba‘zan pessimist bo‘lib maqolalar yozaman, taskin izlayman”, - deydi va o‘z boshidan o‘tkazgan bir kichik voqeani xotirlaydi: “Adabiy uchrashuvda bir ayol menga savol berdi: “Nega qahramonlaringiz taqdiri bu qadar to‘kis, nega zig‘ircha bo‘lsa ham iztirob, ayriliq yo‘q? Axir, hayot unday emas-ku?!” Ayolning savoli, uning mahzun qarashlari meni dovdiratib qo‘ydi. Javobim yo‘q edi, shunchaki, bilmasdim...

O‘ylaymizki, chiqarilgan xulosalar va berilgan tavsiyalar mamlakatimizda kitobxonlik darajasining oshishida o‘z hissasini qo‘shadi. Zero, bu takliflarni bayon qilishda ilmiy tadqiqotchilar, kitobshunos olimlar va ayni jarayon ichida tajriba orttirgan malakali mutaxassislarning mushohadalariga asoslandik. Tadqiqotimizning qaysidir tomonlari kutubxonachilik sohasiga ijobiy ta‘sirini o‘tkazib, yosh avlodni kitobga mehr qo‘yadigan qilib tarbiyalashda amaliy natijalar bersa, biz o‘zimizni ko‘zlangan maqsadga erishgan, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 1-qism Toshkent. 2004.
2. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism Toshkent. 2008.
3. Davlatov S. Kutubxonachilik ishi tarixi. Toshkent. 2006.
4. Qosimova O, Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. Toshkent. 1994.
5. Арзунян Татьяна Гагиковна. История библиотечного дела в 1950-х-1990-х гг (на примере Иркутской области и Красноярского края). Афт. Иркутск 2011.
6. Волженина С. Ю. Библиотечная отрасль как част социально-экономической системы региона. Афт. Челябинск 2013. С-3.Егорова Е. В. Библиотечное дело Удмуртии: история становления и развития (вторая половина XIX –первая половина XX вв) Ижевск 2006.
7. Егорова Е. В. Библиотечное дело Удмуртии: история становления и развития (вторая половина XIX –первая половина XX вв) Ижевск 2006.
8. Нансалмаа Арьяабал. Библиотечное дело в Монголии: развитие и современное состояние. Москва 2003.